

## ZAMONAVIY BANK XIZMATI TURLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi

*“Ma’mun unversiteti” NTM katta o’qituvchisi*

Yaxshimuratova Mumtozbegim

*“Ma’mun unversiteti” NTM Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti*

*iqtisodiyot yo’nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy bank xizmati turlari o’rganilgan. Ularning o’ziga xos xususiyatlari yoritilgan hamda hozirda O’zbekistonda foydalanish istiqbollari tahlil qilingan*

**Kalit so’zlar:** *bank, bank xizmati, masofaviy bank xizmatlari, Bank-Mijoz, Mobil Internet-banking, banking, SMS-banking,*

### Asosiy qism

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati doirasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg’or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Xusan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun muhitni yaratadigan «O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi hamda «To’lovlar va to’lov tizimlari to‘g‘risida»gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta’minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko’rsatishda inson omili ta’sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

Xusan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Bank va yirik korxonalarimiz ilk marta xalqaro reytinglar olib, jahon moliya bozorlariga chiqdi. Dunyo bozorlariga milliy valyutamizda ham xalqaro obligatsiyalar chiqarildi..

Shu bilan birga, biz bank- moliya sohasidagi islohatlarimizni tizimli ravishda davom ettirish zarurligini albatta yaxshi tushunamiz ”<sup>65</sup> deya ta’kidlab o’tdi.

Bank texnologiyalarisiz hozirgi kunda bank faoliyatini yuritish bilan bog’liq har qanday muammolarni hal qilish va jarayonlarni boshqarishni tasavvur qilib bo’lmaydi, chunki so’nggi bir necha yil ichida qarorlar qabul qilish tezligiga bo’lgan talablar keskin o’zgarib ketdi, bank operatsiyalari jarayonida ishlatiladigan kompyuter dasturiy ta’mintlari takomillashib;

<sup>65</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)

ma'lumotlar hajmi oshdi. Jumladan, bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko'rsatish rivojlanib bormoqda .

Masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi - elektron xizmatlardan foydalanish uchun to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchi o'rtaсидаги aloqani ta'minlaydigan telekommunikatsiya vositalari, raqamli va axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot va uskunalar majmui<sup>66</sup>

Bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtaсида modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali kiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;

• barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtida foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o'z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi va pul o'tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish

<sup>66</sup> O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari tog'risida"gi qonuni 4-modda

va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega.

O'z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish va to'lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi.

Markaziy bank tamonidan milliy to'lov tizimini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar ommabopligrini oshirish yo'nalishidagi ishlar doirasidagi bank biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmatlarni raqamli kanallar orqali ko'rsatilishida alohida e'tibor qaratilmoqda

Hozirgi kunda yurtimizda zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda, 2012-yilda foydalanuvchilar soni 56 735 nafar bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2021-yilga kelib 14 571 094 kishiga yetgan, ya'ni 256 barobar oshgan. 2022-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 20 203 384 kishiga yetgan, ya'ni bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 38% oshgan. Bundan ko'rinish turibdiki, Respublikamizda tijorat banklarning zamonaviy bank xizmatlari bozori rivojlanib bormoqda.

Mijozlarni biometrik indefikatsiyalash orqali xizmatlarni ko'rsatish maqsadida 'MY ID' tizimi yaratilgan tartibda banklar, to'lov tashkilotlari marketplayslar ishga tushirildi. Bu esa o'z navbatida, mijozlarga bank xizmatlaridan to'lov tashkilotlariga bevosita tashrif buyurmasdan foydalanish imkoniyatini sezirarli darajada oshirmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan xizmat turlari yanada kengaymoqda. Chet el banklari amaliyotini o'rganish va bank tizimiga malakali kadrlar tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bizning yurtimizda internet banking sohasini yanada takomillashtirish uchun chet davlatdan yuqori zamonaviy texnologiyalarni o'rganib o'zimizning yurtimizga tadbiq qilishimiz kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari tog'risida"gi qonuni
3. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti